

**ANIQ FANLARGA
IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT
UMUMTALIM MAKTABI
BOSHLANGICH SINIF O'QITUVCHISI
ABDULLAYEVA DILFUZANING
MATEMATIKADAN DARS
ISHLANMASI**

Fan nomi: Matematika

Dars mavzusi: 42-5 ko'rinishidagi misollarni yechish .

Maqsad va vazifalari	Ta'limiy: O'quvchilarga mavzu haqida ma'lumot berish va mantiqiy fikrlash, mustaqil yechish, o'z fikrini bayon qila olishga o'rgatish. Tarbiyaviy: O'quvchilarga axloqiy fazilatlarini singdirish va ularni tejamkorlikka, tadbirkorlikka, iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatlarida qo'llashga o'rgatish. Kasbga qiziqtirish. Rivojlantiruvchi: O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va matematik tasavvurini shakllantirish, puxta hisoblash ko'nikmalarini hosil qilish, amaliy, og'zaki hamda yozma hisoblash malakalarini rivojlantirish. Vazifalari: O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish va kengaytirish; – mavzuga oid tarqatmalar va matnlar ustida mustaqil ishlashga undash.
O'quv jarayonining mavzusi	Yangi mavzu haqida tushuncha berish, bilim, ko'nikma va malakalarini hosil qilish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Tipi: Yangi bilm beruvchi, mustahkamlovchi, sinovchi, umumlashtiruvchi. Usul: An'anaviy, noan'anaviy. Uslub: Yozma, og'zaki, suhbat, savol-javob, ko'rgazmali, amaliy, bahs-munozara, mustaqil ish. Jihoz: Darslik, rasmlar, o'quv qurollari rag'batlantiruvchi kartochkalar, darsga oid ko'rgazmalar, test varaqalari, plakatlar. Baholash: 5 balli tizimda.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarning o'zlashtirishiga erishadi. O'quvchida darsga nisbatan qiziqish o'yg'otadi. Oldiga qo'yilgan muammolarni yechishni o'rgatadi. O'z ustiga mustaqil ishlaydi.
	O'quvchi: Yangi mavzuni o'zlashtiradi. Nutqi rivojlanadi, o'z-o'zini nazorat qiladi, mavzular ustida ishlaydi. Mavzuni o'zlashtirish orqali bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi.
Kelgusi reja	O'qituvchi: Yangi metod va usullarni tadbiq etadi. O'z mahoratini oshiradi.
	O'quvchi: Shu ma'lumotlar yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar to'playdi. Xulosa chiqarib, malakasini oshiradi.

Darsning blok - chizmasi

№	Dars bosqichlari	Vaqt taqsimoti
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni mustahkamlash	10daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	10daqiqa

4	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa
5	Dars yakuni: baholash	2 daqiqa
6	Uyga vazifa	3 daqiqa

Darsning borishi

a) **I. Tashkiliy qism:** Salomlashish. Davomatni aniqlash. O'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish. Dars mavzusi, maqsadi borishi bilan tanishtirish

Matematika fanlar ichra shoh

Uning sirlaridan bo'lingiz ogoh

II. O'tilgan darsni so'rash.


a) Uyga berilgan vazifani tekshirib, tahlil qilish va xatolar ustida ishlash.

-Qani aytingchi, o'quvchilar kecha biz qanday bayramni nishonladik?

-Bayroq qanday shaklda?

b) Qoidalarni so'raladi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlab olamiz.



1. Topshiriq beriladi: "Zanjir"

2. Matematik diktant:

1. 18 va 7 ning yigindisi;

36 va 5 ning ayirmasi;

12 va 9 ning ayirmasi;

28 va 3 ning yigindisi;

$18+7=27$

$36-5=31$


$12-9=3$

$28+3=31$

II. Yangi dars bayoni :

Misolning yechilishini tushuntiring:

$$42 - 5 = \square \square$$



$$42 - 5 = \square \square$$

2 3


$$42 - 5 = 42 - 2 - 3 = (42 - 2) - 3 = 40 - 3 = 37$$

2-misol tushuntirish bilan yechiladi

$$57-9=\underline{57-7}-2=(57-7)-2=50-2=48$$



$$65-7$$



$$87-9$$



$$42-6$$



$$97-8$$



$$65-7=65-5-2=(65-5)-2=60-2=58$$

$$87-9=87-7-2=(87-7)-2=80-2=78$$

$$42-6=42-2-4=(42-2)-4=40-4=36$$

$$97-8=97-7-1=(97-7)-1=90-1=89$$

III . Yangi darsni mustahkamlash

Uzunlik o'lchov birliklari slaydi namoyish qilinadi

Misollar yechiladi

3. $89 \text{ sm} \square 8 \text{ dm } 9 \text{ sm}$
 $62 \text{ sm} \square 6 \text{ dm } 2 \text{ sm}$

$57 \text{ sm} \square 5 \text{ dm } 7 \text{ sm}$
 $43 \text{ dm} \square 4 \text{ dm } 3 \text{ sm}$

4. Yosh tomoshabinlar teatriga birinchi avtobusda 35 nafar, ikkinchi avtobusda esa 5 nafar kam o'quvchi bordi. Yosh tomoshabinlar teatriga hammasi bo'lib necha nafar o'quvchi borgan?

1-avtobusda-35nafar }? nafar



2-avtobusda-?,5nafar kam

Yechish: $35-5=30$ (nafar o'quvchi)

$$35+30=65(\text{nafar o'quvchi})$$

Javob:65 nafar o'quvchi borgan

5-misol



-Bu qanday shakl va uning perimetri qanday o'lchanadi?


$$1.2+4+2+4=12\text{sm}$$

$$2.4+3+2+5=14\text{sm}$$

O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgn avtomobillar haqida suhbatlashish



6-misol bajariladi



IV. Darsni yakuni: O`quvchilarni uy vazifalari, doskada yoki mustaqil ravishda ishlashiga qarab baholash.

O`quvchilarni rag`batlantirish, g`olib guruhni aniqlash, uyga vazifani aytish.

V. Uyga vazifa: 64-bet 7-8- misollar.